

BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIGA INNOVATSION YONDASHUV (1-2-SINFLAR MISOLIDA)

Do'satova Marhabo Izbasarovna

Jizzax viloyat Paxtakor tuman MMTBga

qarashli 2-sonli umumi o'rta ta'lim

maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda, xususan, 1–2-sinflar matematika darslarida innovatsion yondashuvni tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, qiziqishlari va tafakkur darajasiga mos ravishda ta'lim texnologiyalarini qo'llashning afzalliliklari tahlil qilingan. Interfaol metodlar, raqamli vositalar, ijodiy topshiriqlar va o'yinli yondashuvlar orqali o'quvchilarda matematik tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqola, shuningdek, o'quvchilarni faollashtirish, darsga qiziqishini oshirish va mustaqil fikrlashga yo'naltirish kabi pedagogik maqsadlarni amalgalashda innovatsion uslublarning roliga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika, 1–2-sinflar, innovatsion yondashuv, interfaol metodlar, o'yinli dars, raqamli texnologiyalar, ijodiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchini faollashtirish

Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va kelajakdagi akademik muvaffaqiyatlari uchun asos yaratishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish ushbu fan bo'yicha o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. O'quvchilarni fanga qiziqishini oshirishda yangicha usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Jon Dyuining "Biz bolalarning kelajagini qo'ldan boy beramiz, agar biz ularni bugun

kechagi kuni o‘qitgan usulda o‘rgatishda davom etsak” – degan fikrlari ham o‘z ahamiyatiga ega. Boshlang‘ich maktab yoshida o‘quvchilarning doimiy qiziqishlari va qobiliyatlari shakllanadi, shuning uchun bu davrda matematikaning jozibador tomonlarini olib berish kerak. Zamonaviy o‘qituvchi o‘ziga savol berishi kerak:

“Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qanday qo‘llash mumkin?” O‘qituvchining maqsadi – yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o‘quvchilarga ta’lim berishdir[1]. “Innovatsiyalar - bu faqat yangilik emas, balki tizimni yangilaydigan asosiy elementlarni kiritish orqali mutlaqo yangi sifatlarga erishishdir” (P.S. Lerner). Tahlillariga ko‘ra, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan axborotlar 2 hafta o‘tgach, mustaqil o‘qish orqali 10 foiz; tinglash orqali 20 foiz; o‘zi namoyish etsa yoki so‘zlab bersa, 50 foiz; bahs-munozara, suhbat orqali 80 foiz; o‘zi amaliy bajarganda esa 90 foizi eslab qolinar ekan. Shularni hisobga olsak, o‘quvchilarga dars berishda ko‘proq bahs-munozara, suhbat va amaliy ishlarni dars davomida o‘z kuzatuvimiz va nazoratimiz ostida olib borishimiz kerak ekan[1,2]. Ma'lumki, bolalar tezda bir xil narsalarni bajarishdan zerikadi, bunda ularning ishi samarasiz bo'ladi va rivojlanish jarayoni sekinlashadi. Boshlang‘ich sinflarga dars mashg‘ulotlarini o‘tayotgan paytda multimedia vositalaridan deyarli hamma darsda unumli foydalanishimiz mumkin. Bugungi kunda quyidagi zamonaviy ta’lim texnologiyalari yoki ularning elementlaridan foydalanish samarali hisoblanadi[3]: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. AKTlarning asosiy ustunligi ko‘rgazmaliligi bo‘lib, axborotni ko‘rish orqali eslab qolish juda muhimdir. Axborot texnologiyalari o‘quv jarayonini ijodiy va o‘quvchiga yo‘naltirilgan qilib o‘zgartiradi.

Matematika darslarida AKTdan foydalanish o‘qituvchilarga quyidagilarni imkon beradi:

- o‘qitish jarayonini qiziqarli, yorqin, jonli qilib ko‘rsatish;
- ko‘rgazmali o‘qitish muammosini samarali hal qilish;

- ta'lim materialini o‘quvchilar uchun yanada tushunarli va qulay qilib vizualizatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish.

Darajali differensial va individual ta'lim texnologiyalari. Differensial o‘qitish bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga va mustaqil ijodiy fikrlashga yordam beradi. Turli darajadagi topshiriqlar o‘quvchilarning individual qobiliyatlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etishni osonlashtiradi. O‘yin texnologiyalari. Darsda o‘yin elementlarini qo‘sish ta'lim jarayonini qiziqarli qiladi, bu esa o‘quvchilarda yaxshi kayfiyat yaratadi va o‘quvdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari. O‘quvchi markazida bo‘lgan ta'lim yondashuvi butun dunyoda o‘z ahamiyatini oshirib bormoqda. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning qobiliyatlarini hisobga olib, ularni shaxsiy rivojlanishlariga yo‘naltiradi. Test texnologiyalari. Test topshiriqlari darsning turli bosqichlarida ishlatalishi mumkin bo‘lib, bilimlarni aniqlash va nazorat qilishda samarali vosita hisoblanadi. Salomatlikni saqlash texnologiyalari. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonida o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlashga qaratilgan. Darsda turli topshiriqlarni muqobil ravishda berish, mustaqil ishlash vaqtlarini belgilash va yengil tanaffuslar uyushtirish orqali o‘quvchilarning qobiliyatlarini saqlash va rivojlantirish mumkin. Kichik sinf o‘quvchilari guruh bo‘lib ishlashni ham yaxshi ko‘rishadi, bu esa innovatsion ta’limning xususiyatlarini o‘z ichiga oladi: izlanish faoliyati natijasida bilimlarni mustaqil ravishda olish, o‘quv materialini tushunishning chuqurligi oshadi, o‘quvchilarning bilish faolligi va ijodiy mustaqilligi ortadi; ular o‘z imkoniyatlarini aniqroq baholaydilar, o‘zlarini yaxshiroq nazorat qilishadi; o‘quvchilar jamiyatda yashash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallaydilar: ochiqlik, xushmuomalalik, boshqa odamlarning nuqtai nazarini hisobga olgan holda o‘z xatti-harakatlarini tashkil qilish qobiliyati[4]. Guruh bo‘lib ishlash printsipini qo’llashda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak: - har qanday hamkor bilan guruhsda ishlash. - faol bo‘lib ishlash, berilgan topshiriqqa jiddiy yondashish. - hamkorlar bilan muloyim va samimiy muloqot qilish.Nafaqat o‘z muvaffaqiyati uchun, balki guruhdoshlar va butun sinf muvaffaqiyatlari uchun ham mas’uliyat hissini his qilish. “Eng yaxshi yordamchi

o‘qituvchi” texnologiyasi. Texnologiya tavsifi: ushbu texnologiya o‘quvchilarni hayotda faol o‘rnini topishga, peshqadamlik, sardorlik sifatlarini, boshqaruvchanlik hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqalarga ko‘mak berish hissini uyg‘otishga yordam beradi.

Texnologiya maqsadi: qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini ta’minlash, ularni o‘z o‘rnida baholash, o‘quvchilarni bola nigohida tarbiyalash, topshiriqlarni tezda bajarishga o‘rgatish, o‘quvchilarga o‘qituvchi ruhini(rolini) o‘rgatish.

Texnologyaning qo‘llanilishi: texnologiya asosan o‘quvchilar uchun topshiriqlarni bajarish va sinovdan o‘tkazish, ya’ni uy vazifasini, darsga tayyorligini, o‘zlashtirish darajasini aniqlash va ularni baholab taqdirlash, o‘quvchilardan o‘qituvchi yordamchisi sifatida foydalanish.

Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, darslikdan topshiriqlar, qizil ruchkalar.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- texnologiya shartlari tanishtiriladi;
- o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi;
- o‘quvchilarga topshiriqlar beriladi;
- o‘quvchilar topshiriqlarni mustaqil ishlashadi;
- topshiriqni to‘g‘ri bajargan birinchi o‘quvchi tekshiriladi va o‘z guruhiga “yordamchi o‘qituvchi” etib tayinlanadi;
- guruhlар soniga mos yordamchi o‘qituvchilar tanlanadi;
- har bir topshiriqdan so‘ng yordamchi o‘qituvchi yangilanadi.

- “yordamchi o‘qituvchi”lar guruh a’zolarini topshiriqlarning bajarilishini nazorat qiladi va ularni baholaydi.

Shuningdek, yordamchi o‘qituvchi, qiyinchiliklarga duch kelgan yoki topshiriqlarni bajara olmayotgan sinfdoshlariga yordamlashadi, o‘qituvchi ish jarayonini nazorat qiladi, baholangan o‘quvchilarni hisobga oladi va guruhnini boshqarib turadi;

- dars yakunida “Eng yaxshi yordamchi o‘qituvchi” e’lon qilinadi.

Ushbu “Eng yaxshi yordamchi o‘qituvchi” texnologiyasini matematika, shunga o‘xhash ko‘p topshiriqlar bilan ishlash talab etiladigan fanlarda, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar bajarish va ularni tekshirish uchun foydalanilganda yaxshi samara beradi. Chunki, matematikada 10, 20 va undan ortiq misol va masalalar bitta darsda keltirilgan.

1-sinflarda ko`proq rasmli o`yinlar ko`rgazmali darslar yaxshi taassurot uyg`otadi. Iloji boricha darslarni ana shunday metodlardan, o`yinlardan foydalanib tashkil etish manfaatli hisoblanadi.

“Zinama-zina o`yini.

Bu o`yinni 1-sinfdan boshlab soddadan murakkab tomon tuzib tashkil qilish mumkin. Bu o`yinni o`tkazishdan maqsad o‘quvchilarni mavzu bo`yicha olgan bilimlarini bosqichma –bosqich mustahkamlab borish. Qo`llanishi:

1-qadam: Bu o`yinni o`tkazish uchun o‘qituvchi sinf o‘quvchilarini ranglar asosidami, raqamlar asosidami kichik guruhlarga ajratib oladi. Har bir kichik guruh uchun sardorlar tayinlanadi. Sardorlar o`yin savollarini olib, guruh a`zolariga birmabir berib boradi. Agar guruh 6 nafar o‘quvchidan tashkil topgan bo`lsa, har bir o‘quvchi 5 tadan savolga javob berishi lozim.

2-qadam: Savollar yonida to`g`ri javoblar yozilgani sababli guruh sardorlari guruh a`zolari javoblarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O‘quvchilar har

bir to`g`ri javob uchun bir balldan to`plab jami 5 ballgacha yig`ishlari mumkin. Shundan so`ng o`qituvchi o`quvchilarni to`plagan baliga qarab qayta guruhlaydi.

3-qadam: Har guruhga o`zlarining iqtidoriga qarab turli xildagi topshiriqlar beriladi. O`quvchilar bu topshiriqlarni bajarib bo`lgandan so`ng o`zaro savol –javob o`tkazadilar, har bir guruh o`z topshiriqlarini ko`rgazmali qurollar yordamida ko`rsatib beradi. Topshiriqni mukammal bajargan kichik guruhlar rag`batlantiriladi va g`oliblar aniqlanadi. Tadqiqot metodi. 2-sinfda 6, 9, 12, 15, ..., ..., ... sonlar qatorini o'rganishda, bolalar sonlar qatorining qonuniyatini aniqlashlari va uni davom ettirishlari kerak. Bunday topshiriqni bajarish orqali bolalar sonlar qatori (+3) qoidasiga asoslanib tuzilganligini aniqlashdi va ushbu qatorni davom ettirishda bu qoidaga rioya qilish, qonuniyatni buzmaslik kerakligini tushunishdi. Bolalarning izlanishlariga, tashabbuskorligiga, kreativ fikrlashiga turtki bo`ladigan loyiha metodi. "Bizni o'rab turgan raqamlar" loyihasi. Loyerishni bajarish davomida bolalar hayotimizda raqamlarning paydo bo'lishi tasodif emasligini aniqlaydilar. Raqamlarsiz muloqotni tasavvur qilib bo`lmaydi. Raqamlar haqidagi fan – matematika – kechagi va ertangi kunni tasavvur qilishning iloji yo'qligi bilan izohlanadi. Loyerishni ota-onalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bolalar ota-onalari bilan birgalikda qiziqarli raqamlar haqida ma'lumotlarni to'plashadi va ularni o`qituvchiga taqdim etishadi. Umumta'lim maktablarida o`quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, bilimini o`z vaqtida tekshirish va baholashda "Kahoot!", "Plickers" dasturlari va iSpring QuizMaker kabi raqamli texnologiyalardan ta'limga foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida funksional savodxonlikni shakllantirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishga hech qanday cheklovlar yo'q[5]. Bugungi kunda matematika – zamonaviy hayotni tasavvur qilib bo`lmaydigan asosiy fanlardan biridir. Matematika darslarida hayotiy masalalarni yechish nafaqat istalgan, balki zaruriy ta'lim elementi hisoblanadi. O`quvchilarning funksional matematik savodxonligi ta'limdagi muvaffaqiyat ko`rsatkichidir.

Innovatsion pedagog Viktor Fyodorovich Shatalov yozganidek: “Pedagog o‘rgatadigan emas, balki o‘quvchining qanday o‘rganishini his qiladigan kishidir”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduraxmanova N., O`rinboyeva L. O`rta umumta`lim mакtabining 2 –sinfi uchun darslik. Toshkent. “IPTD”, 2012 yil.
2. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo`llanma. Toshkent. “Uzinkomsentr”, 2009 yil., 96 bet.
3. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Sharq”, 2010 yil. 160 bet.
4. Bikboeva N.U., R.I. Sidelnikova, G.A. Adambekova. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (O`rta maktab boshlang`ich sinf o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma.) Toshkent. “O`qituvchi”, 1996 yil.
5. Bikboeva.N.U., Yangiboeva E.Ya. Ikkinci sinf matematika darsligi. Toshkent. “O`qituvchi”, 2010 yil.